

TALABALARDA KASBIY REFLEKSIYA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shukurova Nargiza Ikramovna
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL REFLECTION IN STUDENTS

Shukurova Nargiza Ikramovna
Teacher, Karshi International University

Annotatsiya. Maqola talabalik davrida kasbiy refleksiya shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Kasbiy refleksiya talabalarning o'z kasbiy faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim jarayon sifatida tahlil qilingan. Ta'lim muhiti, shaxsiy xususiyatlar va kasbiy maqsadlarning ushbu jarayondagi o'rni hamda refleksiyaning rivojlantirish uchun treninglar, reflektiv jurnal yuritish va guruh munozaralar kabi samarali usullar ko'rsatilgan. Maqola kasbiy rivojlanish va talabalarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun nazariy va amaliy asos sifatida ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: kasbiy refleksiya, talabalar psixologiyasi, kasbiy faoliyat, ta'lim muhiti, psixologik xususiyatlar.

Abstract. The article is devoted to the study of the psychological characteristics of the formation of professional reflection during student life. Professional reflection is analyzed as an important process that helps students understand, evaluate and improve their professional activities. The role of the educational environment, personal characteristics and professional goals in this process, as well as effective methods for developing reflection, such as training, reflective journaling and group discussions, are shown. The article is important as a theoretical and practical basis for professional development and increasing the psychological readiness of students.

Keywords: professional reflection, student psychology, professional activity, educational environment, psychological characteristics.

Kasbiy refleksiya – bu shaxsning o'z kasbiy faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, baholash va samaradorlikka erishish maqsadida o'z ustida ishlashga qaratilgan jarayon bo'lib, u kasbiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Refleksiya jarayonida shaxs o'z faoliyatini anglash va unga baho berish orqali kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu jarayon talaba shaxsining nafaqat kasbiy, balki shaxsiy rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Chunki refleksiya o'zini bilish, tushunish va rivojlantirishning asosiy vositalaridan biridir. Talabalik davri har bir insonning hayotida muhim bosqichlardan biri bo'lib, ushbu davrda kasbiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Ayniqsa, bugungi globallashtirish davrida mehnat bozori dinamikasi, kasblar talabi va o'qish jarayonida o'zgaruvchan muhit talabalarni doimiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishga undaydi. Shu nuqtai nazardan,

talabalarda kasbiy refleksiya shakllanishi ularning kelajakda malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kasbiy refleksiya talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

O‘z faoliyatini chuqur tahlil qilish: Talabalar o‘z o‘quv va amaliy faoliyatlarida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va yechimlarini izlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Refleksiya orqali talabalar o‘z bilimlari va qobiliyatlariga tanqidiy yondashishni o‘rganadilar. Bu esa ularning yangi sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi.

Yangi bilim va ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirish: Refleksiya talabalarning o‘quv jarayonida o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayonini osonlashtiradi.

Shu bilan birga, kasbiy refleksiya nafaqat talabaning faoliyatini rivojlantirish, balki uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, kasbga bo‘lgan munosabati va mas‘uliyat hissini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon ta‘lim jarayonidagi turli usullar, xususan, amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar va guruhiy ishlar orqali rivojlantiriladi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, kasbiy refleksiya faqat shaxsiy rivojlanishga emas, balki jamiyat uchun malakali kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda yuqori raqobatli mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki o‘z-o‘zini anglash va takomillashtirish qobiliyati ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun talabalik davrida kasbiy refleksiyaning shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy ta‘lim jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi zarur.

Ushbu maqola talabalarda kasbiy refleksiya shakllanishining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlantirish uchun samarali metodlarni yoritishga qaratilgan. Maqolada talabalarning kasbiy rivojlanishida refleksiyaning o‘rni va uning samaradorligini oshirish usullari keng yoritiladi.

Refleksiya inson tafakkuri va o‘z-o‘zini anglash jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, uning tarixiy ildizlari antik falsafa davriga borib taqaladi. Aristotel tafakkur va o‘z-o‘zini bilishni insonning oliy qobiliyatlaridan biri deb hisoblagan. Uning nazariyasida refleksiya insonning fikrlash faoliyatini o‘zida aks ettirish, ya‘ni “fikir haqida fikr yuritish” sifatida talqin qilingan. Keyinchalik, Descartes refleksiyaning “Men fikrlayapman, demak, men mavjudman” degan mashhur falsafiy tamoyil asosida rivojlantirib, uni insonning ongli faoliyatini anglash va tahlil qilish qobiliyati sifatida ko‘rsatgan.

XX asrda refleksiya psixologiya fanida chuqur tadqiqot obyekti sifatida o‘rganila boshladi. J. Devey refleksiyaning o‘zaro bog‘langan tajriba va tahlil jarayonlari orqali shaxsiy o‘z-o‘zini ta‘minlovchi asosiy vosita sifatida ta‘rifladi. Uning fikriga ko‘ra, refleksiya insonning bilish faoliyati samaradorligini oshirish va uning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlash vositasidir. Lev Vigotskiy esa

refleksiyani shaxsning o'z-o'zini tushunishi va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali rivojlanishi bilan bog'ladi. Kasbiy refleksiya tushunchasi esa asosan XX asr oxirida shakllangan bo'lib, bu o'zini kasbiy faoliyatda anglash, faoliyat natijalarini tahlil qilish va uni takomillashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Kasbiy refleksiya professional rivojlanish va shaxsiy o'sishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayon o'quv muassasalari va kasbiy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy refleksiya bu ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda shaxsning bilim, hissiyot va amaliy tajribasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Kognitiv (bilim darajasini tahlil qilish):

Bu refleksiya jarayonining intellektual jihati bo'lib, shaxsning o'z bilimlarini, o'rgangan materiallarini va kasbiy ko'nikmalarini qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashga qaratilgan. Kognitiv refleksiya talabalarga o'z bilimlarini qaysi darajada tushunganligini anglash, o'quv jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kelgusida rivojlantirish zarur bo'lgan ko'nikmalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, talaba o'zining nazariy bilimlarini amaliyotda qanday qo'llay olishini tahlil qilsa, bu uning kognitiv refleksiya qobiliyatining namunasidir.

Emotsional (hissiy tahlil) refleksiya jarayonining ushbu tarkibiy qismi faoliyat davomida shaxsda yuzaga keladigan stress, qoniqish yoki xavotir kabi hissiy holatlarni anglash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Emotsional refleksiya orqali talabalar faoliyat davomida yuzaga kelgan hissiy to'siqlarni aniqlash, hissiy holatlarning kasbiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilish ijobiy va salbiy his-tuyg'ularni boshqarishni o'rganadilar. Masalan, talabalar amaliyot davomida o'zlarini ishonchsiz his qilishlari mumkin, ammo bu hissiy to'siqlarni tahlil qilish orqali ular o'zlarini rivojlantirish yo'llarini aniqlay oladilar.

Amaliy (faoliyatni takomillashtirish) refleksiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning o'z kasbiy vazifalarini bajarishdagi tajribasini tahlil qilish va undan xulosa chiqarishga qaratilgan. Amaliy refleksiya talabalarga o'z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish, samarali usullarni aniqlab, ularni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Masalan, talaba kasbiy amaliyot davomida qilgan xatolarini tahlil qilsa va kelajakda ularni takrorlamaslik uchun reja tuzsa, bu amaliy refleksiya hisoblanadi.

Kasbiy refleksiya bu nafaqat bilimlarni anglash va rivojlantirish jarayoni, balki shaxsning kasbiy o'sishini ta'minlovchi muhim vositadir. Kognitiv, emosional va amaliy tarkibiy qismlar refleksiyani ko'p qirrali va kompleks jarayon sifatida taqdim etadi. Talabalarda ushbu jarayonni shakllantirish nafaqat ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshiradi, balki kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishlariga ham xizmat qiladi.

Kasbiy refleksiya talabaning o'z kasbiy faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirish jarayoni bo'lib, u shaxsning individual xususiyatlari, ta'lim

muhiti va kasbiy maqsadlar kabi omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu omillar refleksiya jarayonining sifatli shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

1. Shaxsning individual xususiyatlari. Har bir insonning kasbiy refleksiyaning shakllantirish qobiliyati uning individual psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Quyidagi jihatlardan ayniqsa muhimdir:

O‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati. Talabaning o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyati refleksiya jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun talabalar o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglash, faoliyatdagi xatolarni aniqlash va ulardan saboq olishni o‘rganishlari kerak. O‘zini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan talabalar o‘zlariga real baho bera oladilar va kelgusida qanday jihatlarni rivojlantirish zarurligini tushunadilar.

Motivatsiya darajasi. Motivatsiya bu shaxsning maqsadga erishish yo‘lidagi ichki energiyasi bo‘lib, kasbiy refleksiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Yuksak motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar o‘z faoliyatlariga tanqidiy yondashib, bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga intiladilar. Aksincha, past motivatsiya refleksiya jarayonini sustlashtiradi va shaxsning kasbiy rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. Motivatsiyani oshirish uchun maqsadga erishish yo‘lidagi kichik g‘alabalar va ijobiy fikrlarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

O‘ziga bo‘lgan ishonch. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ya’ni o‘z imkoniyatlariga va qobiliyatlariga ishonishi, refleksiya jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarur shartlardan biridir. O‘ziga ishonchi baland talabalar o‘z tajribasini ochiq-oydin tahlil qilib, faoliyatdagi xatolaridan saboq olishga moyil bo‘ladilar. Bu jihat, ayniqsa, talabalar amaliyot davomida qiyin vazifalarni hal qilishda o‘zini namoyon qiladi.

2. Ta’lim muhitining roli. Ta’lim muhiti kasbiy refleksiya shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Refleksiya jarayoni ko‘p jihatdan ta’lim tizimining o‘quv-uslubiy yondashuvlariga, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq:

Ta’lim tizimidagi metodikalar. Ta’lim jarayonida innovatsion usullar, masalan, muammoli ta’lim, loyiha uslubi va amaliy mashg‘ulotlar, talabalarni faol fikrlashga va o‘z faoliyatlarini tahlil qilishga undaydi. O‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan darslari kasbiy refleksiya uchun qulay muhit yaratadi.

Amaliy mashg‘ulotlar. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash talabalarni o‘z faoliyatlariga yanada sinchkovlik bilan qarashga undaydi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar o‘z bilimlarini real vaziyatlarda sinab ko‘rishlari, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni tahlil qilishlari va yechim topishlari lozim bo‘ladi.

O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqot. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ochiq va konstruktiv muloqot kasbiy refleksiyaning shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladi. O‘qituvchilar tomonidan berilgan fikr-mulohazalar, qo‘llab-quvvatlash va konstruktiv tanqid talabalarning o‘z ustida ishlashlariga yordam

beradi. Shuningdek, o'quv guruhidagi talabalar bir-biridan o'rganib, reflektiv yondashuvni rivojlantiradilar.

3. Kasbiy maqsadlarning mavjudligi. Kasbiy refleksiyaning samaradorligi ko'p jihatdan talabaning aniq maqsadlarga ega ekanligiga bog'liq.

Aniq kasbiy maqsadlar. Agar talabaning kelajak kasbiy faoliyati uchun aniqlangan maqsadlari bo'lsa, u o'z faoliyatiga chuqurroq e'tibor beradi va refleksiyaning samarali amalga oshiradi. Masalan, kelajakda yaxshi pedagog bo'lishni maqsad qilgan talaba dars berish usullarini o'zlashtirish va ularga tanqidiy baho berishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Motivatsiyalovchi maqsadlarning aniqligi. Maqsadlarning aniq va o'lchanadigan bo'lishi refleksiya jarayonining natijadorligini oshiradi. Talaba maqsadlariga erishish jarayonida o'z faoliyatini baholab, qayta rejalashtirishga tayyor bo'ladi. Bu jarayon nafaqat rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi, balki talabaning kelajakka nisbatan ishonchini mustahkamlaydi.

Maqsadlar bilan bog'liq ichki va tashqi motivatsiya. Kasbiy maqsadlar talabaning ichki motivatsiyasini oshiradi, bu esa refleksiya jarayonini yanada samarali qiladi. Tashqi omillar, masalan, mukofot yoki tan olinish, talabaning refleksiya jarayonida faolligini oshirishi mumkin. Talabalarda kasbiy refleksiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar shaxsning individual xususiyatlari, ta'lim muhiti va kasbiy maqsadlarning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, ta'lim tizimi refleksiyaning rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishi kerak. Shaxsiy xususiyatlar, ta'lim jarayonidagi samarali metodikalar va aniq kasbiy maqsadlar uyg'unligi refleksiya jarayonining samaradorligini oshiradi va talabaning kelajak kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kasbiy refleksiya talabalarni o'z kasbiy yo'nalishlarida muvaffaqiyatli bo'lishlariga zamin yaratadi. Refleksiya jarayonini izchil shakllantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuv va samarali metodlardan foydalanish zarur. O'quv-reflektiv, tajriba-reflektiv va innovatsion-reflektiv bosqichlar talabaning kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Treninglar, reflektiv jurnal va guruhiy munozaralar esa talabaning bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Карпов А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. – М.: ИП РАН, 2004. – 422 с.
2. Куницына С. М. Формирование ответственности у студентов педагогического вуза. Вестник Московского государственного областного университета. Серия «Педагогика» - 2009. - № 4. - С. 20-24.
3. Евплова Е. В. Как развить коммуникативные навыки у студентов? // Актуальные проблемы педагогики и психологии. 2014. № 1. С. 41–45.
4. Ladd J. Collective and individual Moral Responsibility in Engineering: Some Questions / J. Ladd // Society and Technology. – Juni 2004. – P. 6-12..

5. Пашковская И. Н., Королева Н. И. Разработка и внедрение инновационных образовательных технологий в образовательный процесс при введении в действие новых ФГОС ВПО. Методические рекомендации для профессорско-преподавательского состава. СПб.: Изд-во СПбГУСЭ, 2011. 103 с.